

7-sinf
2-chorak
BSB -2 (25 ball)

Mavzu: Adabiy asar uchun illyustratsiya. Adabiyot darsida o‘qilgan asar asosida illyustratsiya chizing.

ONA IBODATI

Qishloqning bir chetida
Pastakkina uy turar.
Sajda qilib shu uyda
Onaizor o‘ltirar.
Yolg‘iz o‘g‘lin eslar u
Yonib achchiq firoqda.
O‘g‘li esa yurt uchun
Jang qiladi yiroqda.
Ona sajda qiladi,
Ko‘z yoshlari shashqator.
Bir nuqtaga tikilgan,
Xayolida nelar bor?
Ko‘z oldiga keladi:
Keng dala – jang maydoni.
Jonsiz yotar maydonda
Mard o‘g‘li – pahlavoni.
Ko‘kragida jarohat,
Qop-qora qon har yog‘i.
Qolmish jonsiz qo‘lida
Dushmanining bayrog‘i.
Ona yuzin qoplar g‘am,
Chimirgancha qoshini
Asta suyar qo‘liga
Oppoq sochli boshini.
Yurak dardi yosh bo‘lib,
To‘lib kelar ko‘ziga.
Marjon-marjon tomchilar
Oqib tushar yuziga.

Sergey Yesenin

Адабиёт 2022 йил 112-бет

Ishlarni baholash mezonlari:

1. Ijodiy ishlarni bajarishda vazifalarni to'g'ri tushunish. (8 ball)

- Rasm tanlangan epizodga mos keladimi?; (2 ball)
- Barcha tafsilotlar hisobga olinadimi? (vaqt, joy, tarixiy davr) (2 ball)
- Rasmda tasvirlangan qahramonning ko'rinishi matnga mos keladimi? (2 ball)
- Murakkab epizodni tanlash va uni uzatish. (2 ball)

2. Kompozitsion yechim: (6 ball)

- Ishni ma'lum bir formatda ketma-ket bajarish; (2 ball)
- Tasvirlangan obyektning nisbati va xarakterini uzatish, (2 ball)
- Tasvirning yaxlitligini saqlagan holda tonal munosabatlarni uzatish. (2 ball)

3. Ranglar yechimi: (4 ball)

- Fon, rang gammasini tanlash; (2 ball)
- Boy ranglar palitrasi; (2 ball)

4. Tasvirlash texnikasi: (3 ball)

- Rasmning ifodaligi; (1 ball)
- Rasmning o'ziga xosligi; (1 ball)
- Ijodiy kreativ yondashuv; (1 ball)

5. Ish ehtiyotkorlik bilan bajarilganligi. (2 ball)

6. Ishning to'liqligi. (2 ball)

Ish 25 ballik tizim bo'yicha baholanadi. Bunday holda, shuni yodda tutingki, individual tarkibiy qismlar baholanmaydi, balki rasm badiiy yaxlitlik sifatida. Ushbu mezonlar sintetik ravishda qo'llaniladi, bir-birini to'ldiradi.